

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2025- yilning yanvar-mart oylarida Toshkent viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2025- yilning yanvar–mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 6 177,7 mlrd so‘mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 5 840,1 mlrd so‘mni (103,8 %), o‘rmon xo‘jaligi – 272,8 mlrd so‘mni (103,5 %), baliqchilik xo‘jaligi – 64,8 mlrd so‘mni (101,8 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Toshkent viloyatining ulushi 11,8 % ni tashkil etdi.



6 177,7

Toshkent viloyati bo‘yicha
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01



5 840,1 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02




272,8 O‘rmon xo‘jaligi

03




64,8 Baliqchilik xo‘jaligi

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot
(xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati, % da**




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari



2025- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 94,5 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 4,4 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 1,1 % i baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi


(mlrd. so‘m)



2025- yilning yanvar–mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Yangiyo‘l (538,0 mlrd so‘m), O‘rta Chirchiq (497,5 mlrd so‘m) va Zangiota (517 ,3 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Yangiyo‘l (9,1 mlrd so‘m), Ohangaron (15,9 mlrd so‘m) va Nurafshon (11,1 mlrd so‘m) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘shish sur‘atlari Yangiyo‘l (112,3 %), Yuqori Chirchiq (111,6 %), Qibray (105,6 %) va Quyi Chirchiq (104,4 %) tumanlarida kuzatildi. Piskent tumani (28,9 %), Bekobod tumani (100,3 %) va Yangiyo‘l shahrida (101,0 %) esa aksincha o‘zgarish sur‘atlari nisbatan pastligi kuzatildi.

**Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati**




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2025- yilning yanvar–mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 5 720,4 mlrd so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 475,9 mlrd so'mni (103,0 %) chorvachilik mahsulotlari – 5 244,5 mlrd so'mni (103,7 %) tashkil qildi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**

8,4 %
Dehqonchilik
mahsulotlari




91,6 %
Chorvachilik
mahsulotlari

**Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)**

Toshkent	23,8	76,2
Chinoz	14,2	85,8
Zangiota	13,8	86,2
Bo'ka	11,4	88,6
Piskent	10,1	89,9
Yangiyo'l	9,3	90,7
Parkent	8,1	91,9
Qibray	7,1	92,9
Bekobod	6,8	93,2
Angren sh.	6,5	93,5
O'rta Chirchiq	5,7	94,3
Ohangaron	5,3	94,7
Oqqo'rg'on	4,5	95,5
Yuqori Chirchiq	3,7	96,3
Olmaliq sh.	2,0	98,0
Bo'stonliq	1,6	98,4
Bo'stonliq	1,6	98,4
Yangiyo'l sh.	1,2	98,8
Ohangaron sh.	0,5	99,5
Nurafshon sh.	0,4	99,6
Chirchiq sh.	0,3	99,7
Bekobod sh.	0,2	99,8


■ Dehqonchilik mahsulotlari ■ Chorvachilik mahsulotlari

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 80,9 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,7 % – fermer xo'jaliklariga, 13,4 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar
bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2025-yilning yanvar–mart oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Bo'ka tumanida (11,1 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Bekobod shahrida (100,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Yangiyo'l tumanida (47,0 %) qayd etildi.




Dehqonchilik mahsulotlari


2025- yilning yanvar–mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 475,9 mlrd soʻmni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 8,4 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'zgarish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xoʻjalik toifalariboʻyicha taqsimlanishi




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2025- yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 13,5 ming tonna sabzavotlar (2024- yilning yanvar–martiga nisbatan 1,02 %ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 82,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



**Toshkent viloyati bo‘yicha
sabzavotlar yetishtirish,
tonna**






Chorvachilik mahsulotlari

2025- yilning yanvar–mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 2 244,5 mlrd so‘mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 91,6 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2025- yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 76,9 ming tonna go‘sh (2024- yilning yanvar–martiga nisbatan 1,04 % ga ko‘p), 170,7 ming tonna sut (1,01 % ga ko‘p), 269,1 mln dona tuxum (1,1 % ga ko‘p) yetishtirildi va 2 502,4 tonna baliq (1,01 % ga ko‘p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha
taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2025- yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 76,9 ming tonna go'sht (2024- yilning yanvar–martiga nisbatan 1,04 % ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 79,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Toshkent viloyati bo'yicha
go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish, tonna




Sut


Hajmi, ming t.



O'zgarish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha
taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2025- yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 170,7 ming tonna sut (2024- yilning yanvar–martiga nisbatan 1,01 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 88,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Toshkent viloyati bo'yicha
sut yetishtirish,
tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'zgarish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha
taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2025- yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 269,1 mln dona tuxum (2024- yilning yanvar–martiga nisbatan 1,1 % ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 54,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.




Toshkent viloyati bo'yicha
tuxum yetishtirish,
ming dona




Baliq


Hajmi, t.



O'zgarish sur'ati




Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha
taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2025- yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2 502,4 tonna (2024- yilning yanvar–martiga nisbatan 1,01 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan, baliqchiliklar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 89,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Toshkent viloyati bo'yicha
ovlangan baliqlar,
tonna





**Chorva mollari va parrandalar
bosh soni, ming bosh**




2025– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,5 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 85,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 5,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 29,1 % i fermer xo‘jaliklariga, 63,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 7,1 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, shunga mos ravishda otlarning umumiy sonidan 18,8 % i fermer xo‘jaliklariga, 75,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 5,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 0,8 % i fermer xo‘jaliklariga, 55,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 44,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.


2025- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 990,8 mingtaga yetdi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 21,8 mingtaga (1,0 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2025- yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 85,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Toshkent viloyati
bo'yicha **yirik shoxli qoramollarning**
umumiy bosh soni, ming bosh




2025- yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 401,8 mingtaga yetdi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 5,0 mingtaga (1,0 %) ko‘paydi.

Sigirlar




Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2025- yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 90,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Toshkent viloyati
bo'yicha sigirlarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2025- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 1 065,3 mingtaga yetdi.


2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y

va echkilar bosh soni 14,0 mingtaga (1,0 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2025- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 63,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




**Toshkent viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2025- yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 54 899 taga yetdi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 83 taga (1,0 %) ko‘paydi.

Otlar



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2025- yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 75,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.





**Toshkent viloyati
bo'yicha otlarning
umumiy bosh soni, bosh**




2025- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 17 139,6 mingtaga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 491,2 mingtaga (1,0 %) ko'paygan.

Parrandalar




Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2025- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 55,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Toshkent viloyati bo'yicha
parrandalar ning
umumiy bosh soni,
ming bosh

